



“TASDIQLAYMAN”

Namangan davlat chet tillar instituti
rektori v.v.b.

P.M.Lutfullayev

2023-yil “6” yanvar

**Namangan davlat chet tillar institutida
2023 yilda ta’lim sifatini oshirish hamda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash bo‘yicha
YO‘L XARITASI**

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas’ullar
1.	O‘quv jarayonini ilg‘or xorijiy tajriba va kadrlar buyurtmachilari talablari asosida tashkil etish.	<p>1. O‘quv rejalaridagi fanlar sonini nomutaxassislik fanlar hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda mustaqil ta’lim salmog‘ini oshirish orqali Institutning ta’lim dasturlarini takomillashtirib borish.</p> <p>2. Ta’lim dasturlari mazmunini kadrlar buyurtmachilari talablari hamda yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribalari asosida shakllantirish.</p> <p>5. Xorijiy mutaxassislar ishtirokida ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, mahorat darslarini o‘tkazuvchi mutaxassislar sonini 3 nafarga etkazish.</p> <p>6. O‘quv jarayoniga xorijiy mamlakatlar yetakchi oliy ta’lim muassasalarining ta’lim texnologiyalari va metodikalarini tatbiq etish.</p>	2023 yil 1 sentabr 2023 yil 1 sentabr 2023 yil davomida 2023 yil 1 sentabr	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari
2.	Institut professor-o‘qituvchilarining	1. Institut professor-o‘qituvchilarini nufuzli xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malaka oshirish	2023 yil davomida	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
	<p>kasbiy mahoratini rivojlantirish, jumladan xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirish hamda ilmiy stajirovka o'tash tizimini yo'lga qo'yish.</p>	<p>kurslariga yuborish.</p> <p>2. Professor-o'qituvchilar uchun xorijiy ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari bo'lgan tashkilot va korxonalarda stajirovkalar tashkil etish.</p>		
3.	<p>Professor-o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar va talabalar uchun zamonaviy badiiy, ilmiy va o'quv adabiyotlarning elektron kataloglarini yaratish.</p>	<p>1. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida Institutning Axborot-resurs markazi foydalanuvchilari uchun kompleks elektron xizmatlar ko'rsatuvchi zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish.</p> <p>2. Veb-texnologiyalarni qo'llagan holda Institut Axborot-resurs markazi raqamli resurslarining elektron katalogini yaratish.</p>	2023 yil 1 mart	AKT markazi bo'limi boshlig'i, ARM rahbari
4.	<p>Institutning ta'lim jarayoni va ilmiy-tadqiqot faoliyatini zamonaviy o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash.</p>	<p>1. Institutning ta'lim jarayoni va ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun zarur bo'lgan hamda etishmayotgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish, Axborot-resurs markazi fondini muntazam ravishda yangilab borish.</p>	2023 yil 1 iyun 2023 yil davomida	Kafedra mudirlari, ARM rahbari
5.	<p>O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.</p>	<p>1. «Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish - NEMIS» axborot tizimiga tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli kiritilishini ta'minlash.</p> <p>2. «Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish - NEMIS» axborot tizimi orqali elektron jurnal, elektron davomat va elektron dars jadvali tizimidan foydalanishni yanada</p>	2023 yil davomida 2023 yil davomida	Fakultet dekani, AKT markazi bo'limi boshlig'i

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
		<p>kengaytirish.</p> <p>3. O'quv auditoriyalarini onlayn rejimda ishlaydigan veb-kameralar bilan jihozlash va har bir fakultetda ma'ruza mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan «SMART» auditoriyalar yaratish.</p>	2023 yil 1 sentabr	
6.	Masofaviy o'qitish tizimini takomillashtirish.	<p>1. Professor-o'qituvchilar tomonidan kunduzgi (2023-2024 o'quv yilidan sirtqi, kechki) ta'lim shakllarida o'tkaziladigan (ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar) mashg'ulotlar videoyozuvlarining markazlashgan katalogini institutning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirish.</p> <p>2. Videoyozuvlarni onlayn translyasiya qilishga mo'ljallangan elektron platformani ta'lim jarayonida qo'llash.</p>	2023 yil 1 sentabr	AKT markazi bo'limi boshlig'i, Kafedra mudirlari
7.	Institut professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirib borish hamda yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish.	<p>1. Institutda faoliyat olib borayotgan «Xirsh» indeksi (h-indeks) 2 va undan yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar sonini oshirish.</p> <p>2. Professor-o'qituvchilar hamda yosh tadqiqotchilarning xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda muntazam ravishda ishtirokini ta'minlash.</p> <p>2. «Scopus», «ScienceDirect», «Web of Science» va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi jumallardagi maqolalar sonini oshirish.</p>	2023 yil davomida	Kafedra mudirlari
8.	Institutda amaliy, fundamental va innovasion tadqiqotlarni yo'lga qo'yish.	<p>1. Amaliy, fundamental va innovasion tadqiqotlar mavzularini tegishli sohalar muammolarini inobatga olgan holda ishlab chiqish.</p> <p>2. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini</p>	2023 yil davomida	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
9.	«Yosh filolog» o'quv laboratoriyasini tashkil etish.	shakllantirish uchun loyiha va takliflar kiritib borish. 1. Laboratoriya uchun xonalarni tayyorlash va zamonaviy uskunalar bilan jihozlash. 2. Laboratoriya faoliyatini yo'lga qo'yish. 3. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish.	2023 yil 1 mart 2023 yil davomida	Fakultet dekani, Ishlar boshqarmasi boshlig'i
10.	Institutning o'quv dasturlarini xalqaro tan olingan tashkilotlarda akkreditatsiyadan o'tkazish.	1. Institutning o'quv dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun xalqaro tan olingan tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish.	2023 yil 1 sentabr	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari
11.	Xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.	1. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari doirasida yuqori ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar va mutaxassislarni Institut doktorant va mustaqil tadqiqotchilariga ilmiy maslahatchi sifatida biriktirish. 2. Xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan mutaxassislik fanlari bo'yicha vebinarlar tashkil qilish.	2023 yil 1 sentabr 2023 yil davomida	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari
12.	Institutda tahsil oluvchi xorijiy talabalar ulushini oshirish.	1. Institutda xalqaro talabalar anjumanlarini o'tkazish va ularda xorijiy talabalar ishtirokini ta'minlash. 2. Xorijiy, avvalambor, MDH davlatlarida Institut faoliyatini targ'ib qilish.	2023 yil davomida 2023 yil may-avgust	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari
13.	Umumta'lim maktablarida pedagogika sohasiga moyilligi va qiziqishi	1. To'raqo'rg'on tumanidagi umumta'lim maktablarida pedagogika sohasiga qiziqishi bor o'quvchilarni aniqlash. 2. Tumandagi ta'lim sifati past bo'lgan maktablarga institut professor-o'qituvchilarini biriktirish.	2023 yil davomida	Fakultet dekani, Kafedra mudirlari

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
14.	<p>bo'lgan yuqori sinf o'quvchilari uchun kasbga yo'naltirish ishlarini faollashtirish.</p> <p>Instituda faoliyat yuritayotgan tyutorlar faoliyatini samarali tashkil etish.</p>	<p>3. Biriktirilgan umumta'lim maktablarida oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun «Maktabda bir kun» loyihasini amalga oshirish.</p> <p>1. Tyutorlar faoliyatini tartibga solish, ularning o'quv, ilmiy va tarbiyaviy sohadagi ishlarini tizimli tashkil etishga qaratilgan o'quv-seminar va seminar-treninglar tashkil etish.</p> <p>2. Tyutorlarning ish faoliyati uchun "Tyutorlik" qilingan ishlari hisobotini fakultetning ilmiy kengashlarida tahlil qilib borish.</p>	2023 yil davomida	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Fakultet dekani, Ilmiy kengash kotibi
15.	<p>Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalar ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini o'rganish bo'yicha sotsiologik so'rovnoma o'tkazish.</p>	<p>1. "O'qituvchi – talaba nigohida" nomli sotsiologik so'rovnoma o'tkazish.</p> <p>2. "Talaba va dekan", "Talaba va prorektor", "Talaba va rektor" uchrashuvlarini o'tkazish.</p> <p>3. Institut saytida va institutning rasmiy kanallarida onlayn so'rovnomalarni o'tkazish.</p>	2023 yil davomida	Rektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i
16.	<p>Institut talabalarining ijtimoiy holatini o'rganish bo'yicha yagona elektron baza yaratish. Ularni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish.</p>	<p>1. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj talabalar yagona elektron bazasini yaratish.</p> <p>2. Elektron bazasini yo'nalishlarga (kam ta'minlangan, chin yetimlar, nogironlar, "Yoshlar va ayollar daftari" va boshqa toifalar) ajratish.</p> <p>3. Talabalarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha institut hisobidan amaliy yordam ko'rsatish.</p>	2023 yil davomida	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Ishlar boshqarmasi boshlig'i
17.	<p>Ijarada va talabalar turar joylarida yashaydigan</p>	<p>1. Talabalar turar joylarida va ijaradagi talabalar yashash sharoitlarini muntazam o'rganib borish, zarur</p>	2023 yil davomida	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
	talabalarning turmush sharoitlarini yaxshilash.	<p>hollarda amaliy yordamlar berish mexanizmlarini yaratish hamda amalga oshirish, bunda tarbiyachi-pedagoglar va tyutorlarning mas'ulligini oshirish va ularga metodik seminarlar o'tish.</p> <p>2. Ijtimoiy ahvolni, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishini muntazam o'rganib borish, ijara olingan xonadonlarda yashovchi talabalarning manzilli ro'yxatlarini muntazam yangilab borish, aniqlangan muammolarni hal etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talabalar turar joylarida madaniy tadbirlarni amalga oshirish orqali talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish; - rektor, prorektor, dekan va bo'lim boshliqlarning talabalar bilan ochiq muloqotlarini tashkil etish. 		bo'limi boshlig'i, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, Fakultet dekani
18.	Institut talabalariga o'qishdan bo'sh vaqtda qo'shimcha daromad topishga ko'maklashish	<p>1. Dars mashg'ulotlaridan keyin Institutning bo'sh auditoriyalarida talabalar tomonidan til o'rgatish kurslarini tashkil etish orqali ularga qo'shimcha daromad topish uchun sharoit yaratib berish.</p> <p>2. Institut talabalarining tikuvchilik va to'quvchilik bilan shug'ullanishi uchun xona ajratish va uni kerakli dastgohlar bilan jihozlash choralarini ko'rish.</p> <p>3. Talabalarni jalb etgan holda «Tarjimonlik markazi»ni tashkil etish hamda tarjima xizmatini ko'rsatish.</p> <p>4. Hunarmandchilik sohasida yuqori natijalarga erishgan ustalar tomonidan talabalarga qo'shimcha hunar o'rgatishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etish.</p>	2023 yil davomida	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Ishlar boshqarmasi boshlig'i, Fakultet dekani
19.	Institutda beshta muhim tashabbusni keng joriy	1. Markaz nizomi va chora-tadbirlar dasturini ishlab	2023 yil	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
20.	<p>etish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan «Yoshlar markazi»ni tashkil qilish.</p> <p>Institutda beshita muhim tashabbus doirasida to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish</p>	<p>chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Institutga tegishli binolarda Markaz uchun beshita muhim tashabbusni qamrab oladigan xonalar ajratish.</p> <p>3. Xonalarni beshita muhim tashabbus doirasidagi zarur texnika va jihozlar bilan ta'minlash.</p> <p>1. Maqom, estrada, teatr, rassomchilik va sport yo'nalishlarida to'garaklar hamda badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va yoshlarni mazkur to'garaklarga jalb etish.</p> <p>2. Institut talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan sport tadbirlarini tashkil etish.</p> <p>3. Talabalarning badiiy adabiyotlarga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida «Men sevgan badiiy asar» kabi tanlovlarni muntazam tashkil etib borish.</p>	<p>1 yanvar 2023 yil 1 mart</p> <p>2023 yil davomida</p>	<p>bo'limi boshlig'i, Ishlar boshqarmasi boshlig'i</p> <p>Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Fakultet dekani</p>
21.	<p>Institutda talabalarni ish bilan ta'minlash maqsadida «Karyera markazi» faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	<p>1. «Karyera markazi» uchun alohida xona ajratish va uni kerakli moddiy-texnik baza, ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash hamda Markazning nizomini ishlab chiqish.</p> <p>2. «Karyera markazi» tomonidan Institut ta'lim yo'nalishlariga mos tashkilot va korxonalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.</p> <p>3. Hamkor korxonalar va tashkilot vakillariga Institut talabalarini saralab olishi uchun tegishli sharoit yaratish.</p>	<p>2023 yil 1 iyul</p> <p>2023 yil 1 sentabr</p>	<p>Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Fakultet dekani</p>
22.	<p>Institut talabalarini hududdagi umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim</p>	<p>1. Hududdagi umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalarini imzolash.</p> <p>2. Talabalarga doimiy ravishda mazkur ta'lim</p>	<p>2023 yil 1 sentabr</p>	<p>Fakultet dekani, Tuman umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim</p>

№	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
	muassasalariga biriktirish.	muassasalarida amaliyot o'tash va o'z bilimlarini mustahkamlash uchun sharoit yaratish.		muassasalari rahbarlari
23.	Romanlar, hikoyalar va kinofilmlar orqali yoshlar ongida xalq qahramonlari haqida chuqur tasavvur uyg'otish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini keng yo'lga qo'yish.	<p>1. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Ishoqxon Ibrat, Qatag'on qurbonlari, Ikkinchi jahon urushi davrida o'z jonini fido qilgan qahramonlarning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ijodiy kechalar va uchrashuvlarni tashkil etish.</p> <p>2. Talabalar ijodiy ishlari tanlovlari o'tkazish.</p> <p>3. Obro'li va el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan keksa avlod vakillari bilan doimiy uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish.</p>	2023 yil davomida	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Fakultet dekani